O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/3(113)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

“DUNYOVIY DAVLAT” TUSHUNCHASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Shaxzod USMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada “dunyoviy davlat” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, uning shakllanish tarixi va amaliy ko‘rinishlari chuqur tahlil qilingan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda qo‘llaniladigan “sekulyarizm” tushunchasi va uning davlat boshqaruvidagi o‘rni izohlangan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan dunyoviylik prinsipi va uning huquqiy kafolatlari yoritilgan. Maqolada davlat va din munosabatlarining institutsional ajratilganligi, e’tiqod erkinligi va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash tamoyillari tizimli tahlil qilinib, ularning asosiy xususiyatlari uch guruhga ajratib ko‘rsatilgan. Xalqaro va milliy tajribalar asosida “sekulyar davlat” tushunchasiga mualliflik yondashuvi berilgan.

Kalit so‘zlar: *dunyoviy davlat, sekulyarizm, din va davlat, vijdon erkinligi, Konstitutsiya, institutsional ajratilganlik.*

Особенности понятия «Светское государство»

Шахзод УСМОНОВ,
Институт изучения проблем молодёжи и подготовки перспективных кадров при Агентстве по делам молодёжи Республики Узбекистан, самостоятельный соискатель

Аннотация: в данной статье всесторонне анализируются научно-теоретические основы понятия «светское государство», история его формирования и практические аспекты. Освещены понятие секуляризма, используемое в международной научной литературе, и его роль в государственном управлении, а также принцип светскости, закрепленный в Конституции Республики Узбекистан, и его правовые гарантии. Рассмотрены институциональное разделение государства и религии, свобода вероисповедания и механизмы обеспечения межконфессионального согласия. Основные характеристики светского государства систематизированы по трем группам. Предложен авторский подход к определению понятия «светское государство» на основе международного

и национального опыта.
Ключевые слова: *светское государство, секуляризм, религия и государство, свобода совести, Конституция, институциональное разделение.*

Specific Features of the Concept of a "Secular State"

Shakhzod USMONOV,
Institute for the Study of Youth Problems and Training Prospective Cadres under the Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan, Independent Researcher

Abstract: this article provides a comprehensive analysis of the scientific and theoretical foundations of the concept of a "secular state," its historical development, and practical dimensions. The concept of secularism, widely used in international scientific literature, and its role in state governance are explained, along with the principle of secularism enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its legal guarantees. The article examines institutional separation of state and religion, freedom of belief, and mechanisms for ensuring interfaith harmony. The main features of a secular state are systematically categorized into three groups. An authorial interpretation of the concept of a secular state is proposed based on international and national experience.
Keywords: *secular state, secularism, religion and state, freedom of conscience, Constitution, institutional separation.*

Hozirgi globallashuv jarayonida davlat va din munosabatlari masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mamlakatimizning dunyoviy davlat sifatida mustahkamlanganligi ushbu yo‘nalishdagi nazariy va amaliy izlanishlarning chuqurlashuviga turtki bermoqda. Maqolada "dunyoviy davlat" tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllanishining tarixiy asoslari, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda milliy qonunchilikdagi ifodalanishi tizimli tahlil qilingan. Dunyo tajribasidan kelib chiqib, sekulyarizm va dunyoviylik atamalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni chuqur yoritilgan. Xususan, maqolada davlat va din o‘rtasidagi institutsional ajratilganlik tamoyili, diniy erkinlikning kafolatlari va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash mexanizmlari ilmiy asoslangan holda ochib berilgan. Tadqiqotda dunyoviy davlatning asosiy xususiyatlarini uchta asosiy guruhga ajratish orqali tushuntirishga e'tibor qaratilgan. Maqola O‘zbekiston tajribasi asosida dunyoviylik tamoyilining dolzarbligini va uni izchil amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga xizmat qiladi.

2023-yil 30-aprelda Referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekistonning dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlab qo‘yildi. Bu prinsip Konstitutsiyasining 1-moddasida alohida qayd etildi: "O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat."– deb belgilandi[1]. Oldingi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "dunyoviy davlat" tushunchasi ishlatilmagan bo‘lsa

ham, aslida, O‘zbekiston dunyoviy davlat edi. Shu o‘rinda mamlakatimizda dunyoviy davlat tamoyilini to‘liq va samarali amalga oshirish maqsadida, uning asosiy xususiyatlarini nazariy va xorijiy mamalakatlar tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mavzuni tadqiq etishni “dunyoviy davlat” tushunchasi va uning shakllanish tarixini o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiq. Bu borada, avvalambor, “dunyoviy” so‘zining mazmun-mohiyatini anglab olish lozim bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “dunyoviy” so‘zi: “real, moddiy dunyoga, hayotga oid, hayotiy” jumlalari bilan izohlangan. Ushbu lug‘atda so‘zni qo‘llash bilan bog‘liq bir qancha misollar berilgan bo‘lib, ular orasidan quyidagisini ajratib ko‘rsatish mumkin: “Onam diniy va dunyoviy kitoblarni o‘qigan savodli, nihoyatda sabrli, odamlarga mehribon ayol bo‘lgan”[2]. Demak, “dunyoviylik” tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha mavjud bo‘lib, bu diniylik hisoblanadi. Diniy davlat boshqaruvda ma’lum din qoidalarini qo‘llaydigan, diniy tuzilmalar siyosiy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etadigan, fuqarolarning huquq va majburiyatlari diniy qoidalarga asoslanadigan davlat hisoblanadi. Aksincha, dunyoviy davlat esa, o‘z siyosiy va huquqiy tizimini diniy ta’limotlardan mustaqil ravishda shakllantiradigan davlat shaklidir. Bunday davlatda din va davlat ishlari o‘rtasida konstitutsiyaviy ajratish mavjud bo‘lib, ular o‘zaro mustaqil faoliyat yuritadi. Dunyoviylik davlatning tashqi siyosatdagi ochiqligi bilan emas, balki uning ichki tuzilmalarida diniy qoidalardan mustaqil bo‘lishi bilan belgilanadi. Qonunchilik hujjatlari va siyosiy qarorlar diniy aqidalarga emas, balki dunyoviy prinsiplar va umumiy inson huquqlariga asoslanadi. Dunyoviy davlat barcha diniy e’tiqod va qarashlarga nisbatan betaraf pozitsiyani egallaydi va fuqarolarning e’tiqod erkinligini kafolatlaydi. Diniy tashkilotlar davlatdan mustaqil faoliyat yuritadi va davlat siyosiy boshqaruvda diniy institutlardan foydalanmaydi. Bunday davlat shaklida hokimiyat va boshqaruv qarorlari ijtimoiy manfaatlar va huquqiy me’yorlar asosida shakllanadi. Dunyoviy davlat diniy g‘oyalarga emas, balki demokratik qadriyatlarga va konstitutsiyaviy tamoyillarga tayanadi. Davlatning ichki va tashqi siyosati umumiy fuqarolik manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi. Shu sababli, dunyoviy davlat, mohiyatan, diniy hokimiyatdan xoli, fuqarolik jamiyati tamoyillariga tayangan boshqaruv modelidir.

Xalqaro ilmiy va siyosiy-huquqiy adabiyotlarda “dunyoviylik” tushunchasini ifodalashda, odatda, “sekulyarizm” atamasi qo‘llaniladi, dunyoviy davlatni anglatuvchi ifoda esa, “sekulyar davlat” (secular state) tushunchasi bilan izohlanadi.

Sekulyarizm siyosiy-huquqiy prinsip bo‘lib, uning mohiyati shundaki, davlat diniy institutlar va g‘oyalar ta’siridan xoli bo‘lishi lozim, diniy e’tiqod esa faqat shaxsiy va jamiyat doirasida mavjud bo‘ladi. Sekulyarizm din va davlat o‘rtasida institutsional ajralishni ta’minlaydi. “Sekulyarizm” tushunchasi ingliz tilidagi «secularism» so‘zining ifodalanishi

hisoblanadi. “Kembridj huquqiy lug‘ati”da «secularism» so‘zi: “Din mamlakatning oddiy ijtimoiy va siyosiy faoliyatiga aralashmasligi kerak degan ishonch”, deya izohlangan. Kanadalik faylasuf Charles Taylor sekulyarizmning uch jihatini alohida ajratib ko‘rsatadi:

dinning davlat boshqaruvidan chekinishi (privatizatsiya);

dindorlikning majburiy emasligi;

diniy va dunyoviy dunyoqarashlar orasida teng imkoniyatlarning yaratilishi[3].

Haqiqatdan ham, sekulyarizmning mohiyatini dinning davlatdan ajratilishi hamda barcha uchun vijdon erkinligini ta’minlashdan iborat sanaladi.

Dunyoviy davlatni xalqaro termin sifatida anglatuvchi ifoda esa, “sekulyar davlat” (secular state) tushunchasi hisoblanadi. Ushbu tushunchaga olimlar tomonidan juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Jumladan, amerikalik faylasuf Jon Rolsning fikricha, sekulyar davlat – bu o‘z legitimligini diniy ta’limotlarga emas, balki barcha fuqarolar, e’tiqodidan qat’i nazar, oqilona qabul qilishi mumkin bo‘lgan jamoat aql-idrokiga (public reason) asoslaydigan siyosiy tuzumdir[4]. Jon Rols ta’rifida davlatning legitimligini aynan diniy aqidalarga emas, balki ko‘pchilikning xohish-irodasiga asosan amalga oshirish masalasiga alohida urg‘u qaratilgan.

Kanadalik faylasuf Charles Taylor: “Sekulyar davlat – bu turli diniy va dunyoviy (dinsiz) dunyoqarashlar o‘rtasida neytrallikni saqlaydigan va hech bir e’tiqod tizimini boshqalardan ustun qo‘ymaydigan davlatdir”, deya ta’rif beradi [5]. Shunday qilib, faylasuf asosiy e’tiborni neytrallik masalasiga qaratadi.

Din sotsiologiyasi bo‘yicha ispaniyalik sotsiolog Xose Kazanova esa, sekulyar davlatni quyidagicha izohlaydi: “Sekulyar davlatlar diniy institutlar va davlat o‘rtasidagi institutsional farqlanish bilan tavsiflanadi, ya’ni din davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi va davlat diniy ishlariga aralashmaydi”[6]. Kazanova dunyoviy davlat va diniy davlat o‘rtasidagi institutsional farqlanishni din davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi va davlat diniy ishlariga aralashmasligi bilan izohlaydi.

Amerikalik huquqshunos Brayan Layter sekulyar davlat tolerantlik xususiyatiga alohida e’tibor qaratishi hamda qonunchilik diniy ta’limotlarni inkor qilishini ta’kidlaydi: “Sekulyar davlat diniy e’tiqod va amaliyotlarga toqat qilish tamoyiliga sodiq bo‘ladi, biroq majburiy qonunlar yoki davlat siyosatini asoslashda diniy ta’limotlardan foydalanishni istisno qiladi”[7].

Hind siyosatshunosi Rajiv Bhargava esa hech bir dinga alohida imtiyoz bermaslik sekulyar davlatning asosiy xususiyati sanalishini qayd etadi: “sekulyar davlatda asosiy tamoyil qat’iy ajratish emas, balki “tamoyilga asoslangan masofa” (principled distance) hisoblanadi. Ya’ni davlat din bilan muloqot qilishi mumkin, biroq bu harakat adolat asosida va hech bir dinni imtiyozli qilmasdan amalga oshirilishi lozim”[8].

Rus huquqshunosi N.V.Filina dunvoviy davlatni tadqiq etar ekan, uning bir qancha xususiyatlarini qayd etadi: “Dunyoviy davlatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: fuqaroning diniy e’tiqod bo‘yicha

erkin o‘zini belgilashi, davlat tomonidan rasmiy dinning joriy qilinmasligi, davlat va cherkovning ajratilganligi, qonun ustuvorligi, cherkovning ta’lim, siyosat sohalariga aralashmasligi”[9]

Dunyoviy davlat borasidagi milliy qarashlar alohida e’tiborga molik. Xususan, yuridik fanlar doktori, porofessor O.T.Xusanov dunyoviy davlatni zamonaviy davlatlarga nisbatan ishlatiladigan atama sifatida e’tirof etib, uni quyidagicha izohlaydi: “Dunyoviy davlatlar ilohiy qoidalar asosida emas, tabiat rivojlanishi qonuniyatlari asosida, jamiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan qonuniyatlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Dunyoviy davlatlarda din davlatdan ajratilgan. Dunyoviy davlat dinga hal qiluvchi kuch deb qaramaydi. U dindan xoli faoliyat ko‘rsatadi. Dunyoviy davlatda din fuqarolarning shaxsiy ishi deb qaraladi, u siyosiylashtirilmaydi. Davlat boshqaruvi, ta’lim tizimi, tarbiya din ta’siriga tushirilmaydi”[10]. O.T.Xusanov tomonidan berilgan izoh ancha keng bo‘lib, mazkur ta’rif dunyoviy davlat xususiyatlarini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

Siyosatshunos R.Z.Jumayev ham dunyoviy davlatni siyosiy nuqtayi nazardan izohlaydi va uning asosiy xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, “dunyoviy davlat – bu rasmiy davlat dini mavjud bo‘lmagan va e’tiqodlarning hech biri majburiy yoki afzal deb tan olinmagan davlatdir. Dunyoviy davlat sharoitida din, uning kanonlari va dogmalari, shuningdek, diniy birlashmalar davlat tizimiga, shuningdek davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga, davlat tuzilmalari tizimiga va davlat faoliyatining boshqa sohalariga ta’sir ko‘rsatishga haqli emas”[11]. R.Z.Jumayev dunyoviy davlatning quyidagi asosiy xususiyatlariga e’tibor qaratadi:

“a) davlat fuqaroning dinga bo‘lgan munosabatini va shaxsiy diniy mansubligini aniqlash jarayoniga aralashmaydi;

b) davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining funksiyalarini diniy birlashmalarga yuklamaydi;

c) agar qonunchilikka zid bo‘lmasa, diniy birlashmalarning kanoni faoliyatiga aralashmaydi;

d) davlat va munitsipal ta’lim muassasalarida ta’limning dunyoviy xususiyatini ta’minlaydi;

e) davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyati ommaviy diniy udumlar va marosimlar bilan birga o‘tkazilishi mumkin emas;

f) mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rahbarlari, davlat xizmatchilari va xodimlari, shuningdek, harbiy xizmatchilar ma’lum bir dinga munosabatni shakllantirish uchun o‘zlarining rasmiy mavqeidan foydalanishga haqli emaslar”[11].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda dunyoviy davlatga xos xususiyatlar borasidan xilma-xil fikrlar mavjud, biroq konsepsiyasining mazmun-mohiyati hali to‘liq ochib berilmagan. Bu holat ushbu tushunchaning murakkabligi va uni turli – tarixiy, siyosiy hamda huquqiy rakurslardan turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi. Biroq, umumiy yondashuvga ko‘ra,

dunyoviy davlat – bu davlat institutlari bilan diniy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro mustaqillik va muvozanat tamoyiliga asoslangan davlat shaklidir. Boshqacha qilib aytganda, dunyoviylik, eng avvalo, davlat siyosati va ijtimoiy hayotning muhim yo‘nalishlarida diniy doktrinalarning ustuvor emasligi bilan tavsiflanadi.

Dunyoviy davlat diniy erkinlikni inkor etmaydi, balki barcha dinlarni huquqiy qoidalar doirasida tartibga soladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, dunyoviylik – bu dinni jamiyatdan chetlashtirish emas, balki diniy va dunyoviy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmni shakllantirishdir. Chinakam dunyoviy davlat, ijtimoiy guruhlarning manfaatlari davlat xavfsizligiga, suverenitetiga va konstitutsiyaviy tartibga zid bo‘lmagan taqdirda, ularning huquqlarini himoya qiladi. Bu esa vijdon erkinligi va diniy e’tiqodga rioya qilish erkinligini konstitutsiyaviy darajada kafolatlash hamda uni amalga oshirish uchun zarur institutlar va mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu yondashuv xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan ham o‘z tasdig‘ini topadi. Masalan, Yevropa demokratik davlatlarining ko‘pchiligida davlat va dinning ajratilganligi tamoyili asosiy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida qaraladi. Lekin ushbu hol diniy hayotni inkor qilishni emas, balki uning siyosiy tizim ustidan hukmronlik qilmasligini ta’minlashga qaratilgan. Shu bois, dunyoviylikni jamiyatda turli e’tiqodlar va dunyoqarashlarning tinch-totuv mavjud bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratadigan muhim huquqiy va siyosiy tamoyil sifatida talqin qilish mumkin.

Milliy qonunchiligimizda ham “dunyoviylik”, “dunyoviy davlat” tushunchalariga izohlar berilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi tasdqilgan. Ushbu konsepsiya dunyoviy davlat prinsipini amalga oshirishga qaratilgan, deyish mumkin. Konsepsiyaga ko‘ra, “…dunyoviylik – vijdon erkinligi, fikrlash erkinligi hamda Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq insonparvar qadriyatlarga, umumjamiyat manfaatlariga asoslangan axloq va xulq-atvorni nazarda tutuvchi norma va qarashlar tizimi”[12] sanaladi. Ko‘rib turganimizdek, ushbu tushuncha Konsepsiyada batafsil izohlangan. Unga ko‘ra, dunyoviylik nafaqat vijdon erkinligi, balki fikrlash erkinligi hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi tushuncha sifatida izohlangan.

Bundan tashqari, konsepsiyada “dunyoviy davlat – har kim uchun vijdon erkinligi, mafkura va fikrlar xilma-xilligi kafolatlangan, davlat hokimiyati diniy-konfessiyaviy qarashlar va institutlardan ajratilgan hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, qarorlar qabul qilishda va ularni ijro etishda Konstitutsiyaga va qonunlarga, umumjamiyat manfaatlariga asoslangan tarzda boshqariladigan davlat”[12] sifatida izohlangan. Ushbi izohda quyidagi 3 ta xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchidan, dunyoviy davlatda har bir inson uchun vijdon erkinligi, mafkura va fikrlar xilma-xilligi kafolatlanadi. Fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi kafolatlanadi;

ikkinchidan, davlat va davlat hokimiyati organlari diniy-konfessiyaviy qarashlar va institutlardan ajratilgan holda faoliyat yuritishi ta'minlanadi.Ya'ni davlat hech bir din yoki diniy tashkilot tarafida turmaydi, ularning faoliyatiga aralashmaydi va ularni boshqarish vositasi sifatida ishlatmaydi;

uchinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va ularni ijro etish diniy qarashlar asosida emas, dunyoviy qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bu jihat huquq ustuvorligini ta'minlash, adolat va insonparvarlik prinsiplari asosida boshqaruv yuritilishini anglatadi.

Yuqoridagi olimlarning tahlillari asosida dunyoviy davlatga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

birinchidan, har bir insonning millati, jinsi, tili, irqi, fuqaroligi, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy e'tiqodi yoki e'tiqodsizligidan qat'i nazar, o'z diniy qarashlarini erkin ravishda tanlash, ifoda etish, amal qilish yoki rad etish huquqi ta'minlanadi;

ikkinchidan, har bir inson diniy e'tiqodidan qat'i nazar qonun oldida teng hisoblanadi;

uchinchidan, fuqaroning diniy e'tiqodi yoki unga bo'lgan munosabati shaxsiy masala sifatida qaraladi va rasmiy hujjatlar, davlat organlari hujjat aylanishi hamda identifikatsion ma'lumotlarida ko'rsatilmasligi kafolatlanadi;

to'rtinchidan, davlat barcha din va diniy konfessiyalarga teng munosabatda bo'lib, ularning hech birini rasmiy yoki ustun dinga aylantirmaydi. Shu bilan birga, hech bir diniy e'tiqod yoki guruh qonunchilikda cheklovga uchramaydi;

beshinchidan, diniy tashkilotlar o'z faoliyatini davlatdan mustaqil ravishda amalga oshiradi. Davlat idoralari esa, o'z vakolatlarini amalga oshirishda diniy tashkilotlarga tayanmaydi. Bu prinsip sekulyarizmning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi;

oltinchidan, diniy tashkilotlar davlatning ijtimoiy, siyosiy yoki ma'muriy vazifalarini bajarishga majburlanmaydi. Ular faqat qonunga zid bo'lmagan diniy va ma'naviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin;

yettinchidan, diniy tashkilotlar o'z mablag'larini a'zolik badallari, xayr-ehsonlar va qonun bilan ruxsat etilgan boshqa manbalar orqali mustaqil moliyalashtiradi. Davlat tomonidan diniy tashkilotlar moliyalashtirilmaydi;

sakkizinchidan, diniy ruhdagi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari tuzishga yo'l qo'yilmaydi;

to'qqizinchidan, davlat tomonidan turli diniy guruhlar o'rtasida o'zaro bag'rikenglik, diniy bag'rikenlik va tinchlik muhiti qo'llab-quvvatlanadi;

o'ninchidan, har bir shaxsning dunyoviy ta'lim olish huquqi kafolatlanadi.

Diniy ta'lim faqat maxsus diniy muassasalarda, davlat ta'lim tizimidan tashqarida amalga oshiriladi va bu faoliyat

qat’iy huquqiy me’yorlarga bo‘ysunadi.

Nazarimizda, ushbu xususiyatlarni uchta guruhga ajratishimiz mumkin:

1-guruh: shaxsning tengligi va e’tiqod erkinligini belgilaydigan konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar (barchaning e’tiqodidan qat’i nazar qonun oldida tengligi, vijdon erkinligi, rasmiy hujjatlarda dinga munosabatning aks etmasligi, diniy e’tiqodga asosan ustunlik yoki cheklovlar belgilanmasligi);

2-guruh: davlat va din munosabatlarining institutsional ajratilganligi (diniy tashkilotlar davlat ishlariga, davlat esa diniy masalalarga aralashmasligi, davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlat funksiyalarini yuklamasligi, davlat diniy tashkilotlarni moliyalashtirmasligi);

3-guruh: ijtimoiy barqarorlik va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlashga oid xususiyatlar (diniy ruhdagi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining tuzilmasligi, davlat diniy konfessiyalar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirishi, dunyoviy ta’lim olish huquqining kafolatlanishi).

Yuqorida nazarda tutilgan xususiyatlar asosida, “dunyoviylik”, “dunyoviy davlat” tushunchalariga mualliflik ta’riflari ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, “dunyoviylik” va “sekulyarizm” atamalarini alohida ajratmagan bo‘lardik. Ular bir-birining o‘rnida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tushunchalardir. “Sekulyarizm” xalqaro ilmiy terminologiyada qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lsa, uning milliy atamashunoslikda ifodalanishi “dunyoviylik” hisoblanadi. Xuddi shunday izohni “dunyoviy davlat” va uning xalqaro termini bo‘lgan “sekulyar davlat” (secular state) tushunchalariga nisbatan aytish mumkin.

Shunday qilib, dunyoviylik (sekulyarizm) – bu shaxsiy e’tiqod, ijtimoiy hayot va davlat boshqaruvida ma’lum bir dinning ustun mavqeini cheklagan holda, inson huquqlari, vijdon va fikr erkinligi, ijtimoiy tenglik, tolerantlik va qonun ustuvorligiga asoslangan axloqiy-huquqiy hamda ijtimoiy-falsafiy tamoyillar tizimidir. U davlat va diniy institutlar o‘rtasida aniq chegara o‘rnatishni nazarda tutadi, din va e’tiqodga nisbatan neytrallik asosida, barcha e’tiqod egalari uchun teng imkoniyatlar kafolatlanishini ta’minlaydi.

Dunyoviy davlat (sekulyar davlat) – bu din va davlat boshqaruvi o‘rtasida aniq institutsional ajralishni saqlagan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’i nazar huquqiy tengligini va vijdon erkinligini kafolatlovchi, diniy tashkilotlarga siyosiy funksiyalarni yuklamaydigan va ularning faoliyatiga aralashmaydigan, dunyoviy ta’lim olish huquqini kafolatlaydigan, shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillarga asoslangan holda boshqariladigan davlat shaklidir. U jamiyatdagi e’tiqodlar xilma-xilligini tan oladi va ularga nisbatan betaraflikni saqlagan holda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Dunyoviylik prinsipi va dunyoviy davlat shakli zamonaviy davlatchilikka xos xususiyatlar bo‘lib, bu inson huquqlarini ta’minlash va oqilona boshqaruv tizimini ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Aytish joizki, dunyoviy davlatning asosiy mohiyati dinlarni cheklashga emas, aksincha, har bir dinning erkin va qonun doirasida rivojlanishi uchun imkoniyat

yaratishni, har bir insonning e’tiqodidan qat’i nazar, uning huquqlari ta’minlanishini nazarda tutuvchi davlat shaklidir. Xalqaro ilmiy va siyosiy-huquqiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, “dunyoviylik” tushunchasini ifodalashda, odatda, “sekulyarizm” atamasi qo‘llaniladi, “dunyoviy davlat”ni anglatuvchi ifoda esa, “sekulyar davlat” (secular state) tushunchasi bilan izohlanadi.

Milliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlilidan kelib chiqib, dunyoviy davlatni quyidagicha izohlash mumkin: dunyoviy davlat (sekulyar davlat) – bu din va davlat boshqaruvi o‘rtasida aniq institutsional ajralishni saqlagan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’i nazar huquqiy tengligini va vijdon erkinligini kafolatlovchi, diniy tashkilotlarga siyosiy funksiyalarni yuklamaydigan va ularning faoliyatiga aralashmaydigan, dunyoviy ta’lim olish huquqini kafolatlaydigan, shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillarga asoslangan holda boshqariladigan davlat shaklidir.

Shuningdek, dunyoviy davlatga xos xususiyatlarni uchta guruhga ajratishimiz mumkin:

1-guruh: shaxsning tengligi va e’tiqod erkinligini belgilaydigan konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar;

2-guruh: davlat va din munosabatlarining institutsional ajratilganlishi;

3-guruh: ijtimoiy barqarorlik va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlashga oid xususiyatlar.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati // https://izoh.uz/word/dunyoviy
3. Taylor Charles. A Secular Age. Harvard University Press, 2007. – 896 p.
4. John Rawls. Political Liberalism. Columbia University Press, 1993. – 401 p.
5. Taylor Charles. A Secular Age. Harvard University Press, 2007. – 896 p.
6. José Casanova. Public Religions in the Modern World. University of Chicago Press, 1994. – 320 p.
7. Brian Leiter. Why Tolerate Religion? Princeton University Press, 2013. – 208 p.
8. Rajiv Bhargava. Reimagining secularism respect, domination and principled distance. // Economic and Political Weyekly, Vol. 48, No. 50 (DECEMBER 14, 2013), pp. 79-92.
9. Филина Н. В. Понятие и признаки светского государства //Сибирское юридическое обозрение. – 2014. – №. 4 (25). – С. 3-6.
10. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toskent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – B. 92.
11. Jumayev R.Z. O‘zbekiston Respublikasi – dunyoviy davlat // https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi--dunyoviy-davlat
12. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi fevraldagi O‘RQ-1037-sonli Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1037/0187-son.